



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	

IJTIMOYIY TARMOQLARNING SHAXS IDENTIFIKATSIYASIGA TA'SIRINING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar shaxs identifikatsiyasining rivojlanishida ijtimoiy tarmoqlar va axborot muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning o'zini anglash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda shaxsiy identifikatsiya jarayonining psixologik asoslari, ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari hamda virtual muhitning identitet shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Erik Erikson va Henri Tajfel nazariyalari asosida yoshlarning ijtimoiy guruhlarga mansublik hissi va "Men" konsepsiyasining shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, Leon Festinger tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taqqoslash nazariyasi asosida raqamli muhitning psixologik ta'siri ko'rib chiqilgan. Natijalarda axborot muhiti bir tomondan yoshlarning ijtimoiy faolligi va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishi, ikkinchi tomondan esa identitet beqarorligi, stereotiplar va psixologik bosimni kuchaytirishi aniqlangan. Maqolada yoshlarning sog'lom identifikatsiyasini shakllantirishda mediama'rifat va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, shaxsiy identifikatsiya, axborot muhiti, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy taqqoslash, identitet, mediama'rifat, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article scientifically analyzes the socio-psychological characteristics of social media and the information environment in the development of young people's personal identity. The widespread use of modern digital technologies, the Internet, and social media has a significant impact on the process of young people's self-awareness. The study examines the psychological foundations of the personal identity formation process, the mechanisms of social comparison, and the role of the virtual environment in identity formation. Based on the theories of Erik Erikson and Henri Tajfel, the formation of young people's sense of belonging to social groups and their self-concept is analyzed. Furthermore, based on the Social Comparison Theory proposed by Leon Festinger, the psychological impact of the digital environment is examined. The findings indicate that, on the one hand, the information environment expands opportunities for young people's social activity and self-expression, while, on the other hand, it contributes to identity instability, stereotypes, and increased psychological pressure. The article substantiates that the development of media literacy and critical thinking is an important factor in fostering a healthy personal identity among young people.

Key words: youth, personal identity, information environment, social psychology, social media, digital technologies, social comparison, identity, media literacy, critical thinking.

Аннотация: В данной статье научно анализируются социально-психологические характеристики информационной среды в развитии личностной идентичности молодежи. Широкое использование современных цифровых технологий, интернета и социальных сетей оказывает значительное влияние на самосознание молодых людей. В исследовании освещаются психологические основы процесса самоидентификации, механизмы социального сравнения и роль виртуальной среды в формировании идентичности. На основе теорий Эрика Эриксона и Генри Таджфеля анализируется чувство принадлежности к социальным группам и формирование понятия "я" у молодежи. Также на основе теории социального сравнения Леона Фестингера рассматривается психологическое воздействие цифровой среды. Результаты показывают, что информационная среда, с одной стороны, расширяет социальную активность и самовыражение молодежи, а с другой стороны, увеличивает нестабильность идентичности, стереотипы и психологическое давление. В статье обосновывается развитие медиаграмотности и критического мышления как важный фактор формирования здоровой идентичности у молодежи.

Ключевые слова: молодежь, личная идентификация, информационная среда, социальная психология, социальные сети, цифровые технологии, социальное сравнение, идентичность, медиаграмотность, критическое мышление.



KIRISH

Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda axborot oqimining keskin ortishi yoshlar hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, axborot muhiti shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va o'zini anglash jarayonining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar shaxsiy identifikatsiyasi esa ushbu jarayonning markaziy psixologik hodisasi bo'lib, u individning "Men" konsepsiyasi, ijtimoiy rollari va jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi.

Shaxsiy identifikatsiya murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida individning ichki psixologik xususiyatlari va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosida shakllanadi. Bu jarayonda oila, ta'lim tizimi, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Biroq zamonaviy sharoitda raqamli axborot muhitining ta'siri kuchayib borishi yoshlar identifikatsiyasining shakllanish mexanizmlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun nafaqat axborot manbai, balki o'zini ifoda etish, ijtimoiy taqqoslash va turli identitet modellari bilan tanishish maydoniga aylangan. Bu holat bir tomondan shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan identitetning beqarorlashuvi, ijtimoiy bosim va psixologik ziddiyatlarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

Mazkur maqolada yoshlar shaxsiy identifikatsiyasining rivojlanishida axborot muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot oqimining yoshlar o'zini anglash jarayoniga ta'siri, ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari hamda raqamli muhitning identitet shakllanishidagi ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar shaxsiy identifikatsiyasining shakllanishi zamonaviy jamiyatda murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaraladi. Ushbu jarayon individning "Men" konsepsiyasini shakllantirishi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi bilan birga qadriyatlar tizimini qabul qilishi bilan bevosita bog'liqdir. Psixologik nazariyalarga ko'ra, ayniqsa o'smirlik bilan ilk yoshlik davri identitet inqirozi va uni bartaraf etish bosqichi hisoblanadi.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, inson shaxsiyati butun umr davomida bosqichma-bosqich shakllanadi va har bir bosqichda ma'lum ijtimoiy-psixologik ziddiyat (krizis) hal qilinadi. Yoshlar davri, ayniqsa o'smirlik bilan ilk yetuklik bosqichi, "identifikatsiya va rol chalkashligi" (identity vs. role confusion) bosqichi sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda shaxs o'zining kimligi, jamiyatdagi o'rnini, qadriyatlari bilan birga kelajakdagi maqsadlarini aniqlashga harakat qiladi. Agar bu jarayon muvaffaqiyatli kechsa, mustahkam shaxsiy identifikatsiya shakllanadi; aks holda esa noaniqlik, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga keladi.

Erikson ta'kidlaganidek, identifikatsiya shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy sharoitda bu muhitning muhim qismi axborot makoni hisoblanadi. Yoshlar ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli ijtimoiy rollar, qadriyatlar va hayotiy modellarga duch keladi. Erikson nazariyasiga mos ravishda, yoshlar ushbu modellarni sinab ko'rish, ularga taqlid qilish va ularni ichkilashtirish orqali o'z "Men" konsepsiyasini shakllantiradi. Shu jihatdan axborot muhiti va ijtimoiy tarmoqlar identifikatsiya jarayonini tezlashtiruvchi hamda murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kitobda qayd etilishicha, o'smirlik davrida shaxs ko'pincha "psixologik moratoriy" holatini boshdan kechiradi, ya'ni turli rollarni vaqtincha sinab ko'rish orqali o'ziga mos yo'lni izlaydi. Bugungi axborot muhitida bu jarayon yanada kengaygan: yoshlar virtual makonda turli obrazlar yaratadi, o'zini turli ijtimoiy guruhlariga mansub deb his qiladi. Bu holat bir tomondan shaxsiy o'sish uchun imkoniyat bersa, boshqa tomondan "soxta identitet" yoki yuzaki o'zini anglashga olib kelishi mumkin.

Erikson, shuningdek, identifikatsiya jarayonida ijtimoiy tan olinishi va boshqalar tomonidan qabul qilinishi muhim ekanini ta'kidlaydi. Axborot muhiti va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida bu ehtiyoj "layk", "izoh" va "obunachilar" orqali qondiriladi. Natijada yoshlar o'zini baholashda tashqi ijtimoiy fikrga haddan tashqari bog'lanib qolishi mumkin. Bu esa psixologik jihatdan beqaror identifikatsiyani yuzaga keltiradi.

Nazariyada yana bir muhim jihat - qadriyatlar tizimining shakllanishidir. Erikson fikricha, sog'lom identifikatsiya mustahkam axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga tayanadi. Axborot muhiti va ijtimoiy tarmoqlar esa turli, ba'zan qarama-qarshi qadriyatlarni taklif qiladi. Yoshlar bu oqim ichida tanlov qilishga majbur bo'ladi va bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Erik Erikson tomonidan ilgari surilgan psixososial rivojlanish nazariyasi ushbu jarayonning markaziy mexanizmini tushuntirib beradi, ya'ni individ jamiyatdagi o'rnini topish va shaxsiy barqarorlikka erishish yo'lida ichki va tashqi omillar bilan kurashadi.¹

¹ Erikson E. H. Shaxs va jamiyat: Psixososial rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 45–52-betlar

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yoshlar shaxs identifikatsiyasiga ijtimoiy tarmoqlar va axborot muhitining ta'sirini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi, Henri Tajfelning ijtimoiy identitet nazariyasi hamda Leon Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasi tashkil etdi. Shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, psixologik tadqiqotlar hamda axborot muhitining yoshlar shaxsiy identifikatsiyasiga ta'siri bilan bog'liq ilmiy manbalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar umumlashtirilib, axborot muhitining yoshlar identifikatsiyasi shakllanishiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillari ilmiy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy axborot muhiti shaxs identifikatsiyasi jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar bilan birga raqamli platformalar yoshlar uchun nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiy taqqoslash va o'zini namoyon etish maydoni hamdir. Leon Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga muvofiq, individ o'zini boshqalar bilan solishtirish orqali o'ziga baho beradi.²

Raqamli muhitda esa idealizatsiyalashgan hayot tarzi va filtrlangan obrazlar ko'payganligi sababli yoshlar o'zini past baholash, norozilik yoki identitet noaniqligi holatlariga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy identifikatsiya nuqtayi nazaridan, yoshlar o'zini turli guruhlariga mansublik orqali anglaydi.³

Henri Tajfel ishlab chiqqan ijtimoiy identitet nazariyasiga ko'ra, individning o'z-o'zini baholashi uning qaysi ijtimoiy guruhga tegishliligi bilan chambarchas bog'liqdir. Raqamli platformalarda shakllanayotgan virtual jamoalar - fandomlar, onlayn guruhlar, blogerlar auditoriyasi - yoshlar uchun yangi identifikatsion maydon yaratadi. Bu jarayon bir tomondan ijtimoiy integratsiyani kuchaytirsa, ikkinchi tomondan tor doiradagi fikrlash yoki radikal qarashlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Axborot muhitining yana bir muhim xususiyati - identitetning ko'p variantlilik va fragmentatsiyasidir.⁴

Yoshlar virtual makonda turli rollarni sinab ko'rish, o'zini turlicha namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat shaxsiy rivojlanish uchun ijobiy imkoniyat yaratgan holda, barqaror "Men" obrazining shakllanishini murakkablashtiradi. Natijada individ real va virtual identitet o'rtasidagi nomuvofiqlikni boshdan kechirishi mumkin. Shuningdek, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi kognitiv yuklamani oshiradi va tanqidiy fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar ko'pincha tayyor axborotni qabul qilishga moyil bo'lib, mustaqil tahlil qilish o'rniga stereotiplarga tayanadi.⁵ Bu esa identitet shakllanishida tashqi ta'sirlarning ustun bo'lishiga olib keladi. Algoritmik tizimlar orqali shakllanadigan "axborot pufagi" esa mavjud qarashlarni mustahkamlab, dunyoqarashning cheklanishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, axborot muhiti yoshlar shaxsiy identifikatsiyasining shakllanishiga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi.⁶ Bu bir tomondan keng axborot resurslari, ijtimoiy aloqalar va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan psixologik bosim, ijtimoiy taqqoslashning kuchayishi va identitetning beqarorlashuvi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy sharoitda mediama'rifat, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va psixologik barqarorlikni shakllantirish yoshlarning sog'lom identifikatsiya jarayoni uchun muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlar shaxsiy identifikatsiyasining shakllanishi zamonaviy ijtimoiy sharoitda murakkab, ko'p bosqichli va dinamik jarayon bo'lib, u nafaqat an'anaviy ijtimoiy institutlar, balki raqamli axborot muhiti ta'sirida ham shakllanmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot muhiti yoshlarning o'zini anglash jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir etib, ularning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qarashlari va "Men" konsepsiyasining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Axborot muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shundan iboratki, u bir vaqtning o'zida ham imkoniyat, ham risk omili sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, raqamli platformalar yoshlar uchun keng axborot manbalariga kirish, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish hamda o'zini turli shakllarda ifoda etish imkonini yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy taqqoslashning kuchayishi, idealizatsiyalashgan obrazlar ta'siri va axborotning ortiqcha oqimi natijasida identitet beqarorligi, o'z-o'zini past baholash hamda psixologik bosim holatlari yuzaga kelishi mumkin.

2 Tajfel H., Turner J. C. Ijtimoiy identitet va guruhlar psixologiyasi. – Toshkent: "Universitet", 2020. – 30–38-betlar

3 Festinger L. Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. – 60–67-betlar

4 Karimov A. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2021. – 112–120-betlar

5 Murodova D. Axborot jamiyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2022. – 75–83-betlar

6 Sodiqova N. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 90–98-betlar



Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yoshlar identifikatsiyasida ijtimoiy guruhlariga mansublik hissi muhim rol o'ynaydi. Raqamli muhitda shakllanayotgan virtual jamoalar yoshlarning ijtimoiy identitetini kuchaytirishi bilan birga, ayrim hollarda biryozlama fikrlash va stereotiplarning mustahkamlanishiga ham olib keladi. Bu jarayon shaxsning barqaror identitetini shakllantirishni murakkablashtiradi.

Shuningdek, axborot muhitining kognitiv va emotsional ta'siri yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot oqimining tezligi va hajmi ortib borishi natijasida yuzaki qabul qilish tendensiyasi kuchayadi, bu esa mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy pozitsiya shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, yoshlar shaxsiy identifikatsiyasining rivojlanishida axborot muhiti ikki tomonlama - ijobiy va salbiy ta'sirga ega murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli zamonaviy sharoitda yoshlarning sog'lom identitetini shakllantirish uchun mediama'rifatni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirish hamda raqamli muhitdan ongli va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erikson E. H. Shaxs va jamiyat: Psixososial rivojlanish nazariyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 45-52-betlar.
2. Tajfel H., Turner J. C. Ijtimoiy identitet va guruhlar psixologiyasi. - Toshkent: "Universitet", 2020. – 30-38-betlar.
3. Festinger L. Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. – 60-67-betlar.
4. Karimov A. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2021. – 112-120-betlar.
5. Murodova D. Axborot jamiyati va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2022. - 75-83-betlar.
6. Sodiqova N. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 90-98-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.